RAQAMLI KOMMUNIKATSIYADA PRAGMATIKA: ZAMONAVIY LINGVISTIK TAHLIL (O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA)

https://doi.org/10.70728/phil.v05.i04.108

Muxtorjon Baxtiyarov
bahtiyarov76@mail.ru
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Fotimaxon Baxtiyarova
fbahtiyarova83@gmail.com
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli kommunikatsiya muhitida pragmatik xususiyatlarning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilinadi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va onlayn platformalarda tilning qo‘llanishi, ma’no uzatish jarayoni hamda kontekstning o‘zgarishi o‘rganiladi. Tadqiqotda zamonaviy pragmatika nazariyalari, jumladan Paul Gricening kooperativ prinsip nazariyasi va John Searlening nutq aktlari konsepsiyasiga tayaniladi.

Kalit so‘zlar: raqamli kommunikatsiya, pragmatika, nutq aktlari, kooperativ prinsip, ijtimoiy tarmoqlar, multimodal vositalar, kontekst o‘zgarishi

PRAGMATICS IN DIGITAL COMMUNICATION: MODERN LINGUISTIC ANALYSIS (ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN AND ENGLISH LANGUAGES)

Mukhtorjon Bakhtiyarov
bahtiyarov76@mail.ru
Uzbekistan State University of World Languages
Fotimaxon Bakhtiyarova
fbahtiyarova83@gmail.com
Tashkent International University of Chemistry

Abstract: This article analyzes pragmatic features within the context of digital communication environments. In particular, it examines language use, the process of meaning transmission, and context transformation in social networks, messengers, and online platforms. The study is based on modern pragmatic theories, including Paul Grice’s Cooperative Principle and John Searle’s theory of speech acts. The results show that in digital communication, abbreviations, emojis, and multimodal tools play a significant role in the formation of pragmatic meaning.

(cc) BY

Keywords: digital communication, pragmatics, speech acts, cooperative principle, social networks, multimodal tools, context change

Kirish. XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida tilshunoslik fanida yangi tadqiqot yo‘nalishlari shakllandi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar - Telegram, Instagram, Twitter - orqali amalga oshirilayotgan kommunikatsiya an’anaviy og‘zaki va yozma nutqdan strukturaviy, funksional hamda pragmatik jihatdan sezilarli darajada farq qiladi. Shu bois zamonaviy tilshunoslikda “raqamli diskurs” va “kompyuter vositasidagi kommunikatsiya” (CMC - computer-mediated communication) alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Pragmatika - til birliklarining kontekstga bog‘liq holda qanday ma’no kasb etishini o‘rganuvchi soha - mazkur jarayonni tahlil qilishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ingliz faylasufi va tilshunosi Paul Grice tomonidan ilgari surilgan kooperativ prinsipga ko‘ra, kommunikatsiya ishtirokchilari muloqot samaradorligini ta’minlash uchun sifat (quality), miqdor (quantity), munosabat (relation) va uslub (manner) maksimlariga amal qiladi [1]. Biroq raqamli kommunikatsiya sharoitida ushbu maksimlar ko‘pincha buziladi yoki yangicha shaklda namoyon bo‘ladi. Masalan, qisqa javoblar, emoji va memlar orqali ifodalangan fikrlar ko‘pincha implitsit (yashirin) ma’nolarni yuzaga keltiradi.

Nutq aktlari nazariyasi ham raqamli muhitda qayta talqin qilinmoqda. Ushbu nazariyaning asoschisi John L. Austin nutqni faqat axborot uzatish vositasi emas, balki harakat (act) sifatida talqin qiladi [2]. Keyinchalik John Searle tomonidan rivojlantirilgan ushbu nazariya raqamli kommunikatsiyada yangi ko‘rinish kasb etmoqda: masalan, “like”, “share”, “comment” kabi amallar ham nutq aktining bir turi sifatida talqin qilinishi mumkin. Zamonaviy g‘arb tilshunosligida raqamli diskurs muammolari Susan Herring tomonidan chuqur o‘rganilib, u internet muloqotini gibrid diskurs turi sifatida tavsiflaydi [3]. Naomi Baron esa raqamli kommunikatsiyada til iqtisodiyligi va soddalashuvi kuchayishini ta’kidlaydi [4]. Rus tilshunosligida ham mazkur masala faol tadqiq qilinmoqda. Xususan, Viktor Karasik diskurs tahlili doirasida internet nutqining ijtimoiy-pragmatik xususiyatlarini ochib beradi [5], Elena Goroshko esa kompyuter vositasidagi kommunikatsiyada tilning transformatsiyasini tadqiq etadi [6].

O‘zbek tilshunosligida pragmatika va diskurs masalalari mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida nisbatan kech shakllangan bo‘lsa-da, ularning nazariy ildizlari milliy adabiy va ilmiy tafakkurda qadimdan mavjud. Xususan, Alisher Navoiy asarlarida nutqning kommunikativ maqsadga yo‘naltirilganligi, tinglovchiga ta’siri va kontekstga bog‘liqligi alohida ta’kidlanadi: “So‘zni o‘ylab so‘zla, u - dilning tarjimonidir”[1]. Bu fikr zamonaviy pragmatikaning asosiy tamoyillaridan biri - nutqning kommunikativ niyat bilan bog‘liqligini ifodalaydi. Shuningdek, jadid mutafakkiri Abdurauf Fitrat til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni qayd etib, fikrning vaziyatga qarab

(cc) BY

o‘zgarishini ta’kidlaydi[2]. Bu esa pragmatikada muhim bo‘lgan kontekstual ma’no tushunchasiga mos keladi.

Bundan tashqari, Abdulla Qodiriy va G‘afur G‘ulom asarlarida so‘zning qiymati uning qo‘llanish vaziyati bilan belgilanishi qayd etilib, bu holat diskurs tahlilidagi situativlik va funksionallik tamoyillarini yoritadi [3]. Demak, o‘zbek klassik tafakkurida nutqning kontekstga mosligi, ma’no uzatish jarayoni va kommunikativ maqsad kabi tushunchalar allaqachon shakllangan bo‘lib, ular bugungi zamonaviy pragmalingvistika, raqamli kommunikatsiya va diskurs nazariyasi uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida ham pragmatika va diskurs masalalari so‘nggi yillarda dolzarb yo‘nalishga aylangan. Jumladan, Shavkat Rahmatullayev, Sh.Safarov ishlarida nutqning kontekstual va pragmatik xususiyatlari yoritilgan bo‘lib, ular raqamli kommunikatsiyani o‘rganish uchun muhim metodologik asos yaratadi[7]. Shunday qilib, raqamli kommunikatsiya sharoitida pragmatik jarayonlarni o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, u tilning zamonaviy transformatsiyasini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot raqamli kommunikatsiya muhitida pragmatik hodisalarni kompleks tahlil qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda *diskursiv* va *pragmatik* yondashuvlar hamda *korpus lingvistikasi* metodlari uyg‘un holda qo‘llaniladi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot obyekti sifatida olingan onlayn muloqot shakllarining lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi**.** *Diskurs tahlili* metodi raqamli muhitda yuzaga keladigan yozma muloqot birliklarini (ijtimoiy tarmoqlardagi postlar, kommentlar va messenjer yozishmalari) yaxlit kommunikativ jarayon sifatida o‘rganishga imkon beradi. Ushbu yondashuv orqali matnning faqat lingvistik tuzilishi emas, balki uning ijtimoiy kontekst, adresatga yo‘naltirilganlik hamda kommunikativ maqsad bilan bog‘liq jihatlari ham tahlil qilinadi. Natijada onlayn diskursning dinamik, interaktiv va kontekstga bog‘liq tabiati ochib beriladi. *Pragmatik tahlil* metodi nutq birliklarining yashirin ma’nolari-implikaturalari hamda nutq aktlari tizimini aniqlashga qaratilgan. Bu yondashuv orqali P. Grice tomonidan ishlab chiqilgan kooperativ prinsip[1] asosida muloqotdagi bilvosita ma’nolar, ya’ni so‘zlovchining bevosita ifodalanmagan kommunikativ niyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Jon Searlning nutq aktlari nazariyasi asosida raqamli muloqotda buyruq, *iltimos, maslahat, rozilik* yoki *rad etish* kabi illokutiv aktlarning ifodalanish shakllari o‘rganiladi. *Korpus asosidagi* kuzatuv metodi empirik material sifatida Telegram va Twitter (hozirgi X) platformalaridan olingan real yozishmalarni tahlil qilishga asoslanadi. Ushbu yondashuv lingvistik hodisalarni sun’iy misollar orqali emas, balki tabiiy raqamli nutq materiallari asosida o‘rganish imkonini beradi. Korpus materiallari yordamida qisqartmalar, emojilar, hashtaglar va multimodal belgilar kabi zamonaviy kommunikativ vositalarning pragmatik

(cc) BY

funksiyalari aniqlanadi. Umuman olganda, mazkur uch metodning integratsiyasi raqamli kommunikatsiyada pragmatik ma’noning shakllanish mexanizmlarini har tomonlama va ishonchli tarzda tahlil qilish imkonini yaratadi.

Material sifatida o‘zbek va ingliz tilidagi ijtimoiy tarmoq yozishmalari tanlab olindi. Misollar real kommunikativ vaziyatlardan olinib, mualliflar maxfiyligi qonuniyatiga ko‘ra anonimlashtirildi.

Natija va muhokama

1.Pragmatika va implikatura. Pragmatikaga *implikatura* tushunchasi H.P.Grice tomonidan kiritilgan bo‘lib, u nutqning bevosita (literal) ma’nosidan tashqari, kontekst asosida anglashiladigan yashirin ma’nosini bildiradi. Grice fikricha, muloqot ishtirokchilari “kooperativ prinsip”ga amal qilgani uchun, gapning to‘liq mazmuni har doim ham bevosita ifodalanmaydi, balki tinglovchi tomonidan *inferensiya* (bevosita aytilmagan ma’noni kontekst, bilim va mantiq asosida anglab yetish-uqib olish) orqali tiklanadi[1]. Gricega ko‘ra, *Kooperativ prinsip* quyidagi to‘rt maksimumdan iborat: 1. *Miqdor* (quantity)- zarur bo‘lganidan kam ham emas, ko‘p ham emas. Bunda so‘zlovchi tinglovchiga aynan kerakli miqdorda ma’lumot berishi lozim. Masalan, “U qayerda?” “U Toshkentda” (ortiqcha tafsilotsiz aniq va qisqa javob berilishi). 2. *Sifat* (quality)- Noto‘g‘ri ma’lumot bermaslik, dalilsiz gapirmaslik. So‘zlovchi faqat o‘zi ishonadigan yoki isbotlay oladigan ma’lumotni aytishi kerak-“U bugun keldi” (ma’lumot aniq va ishonchli bo‘lishi shart). 3. *Munosabat* (relation), mavzudan chetga chiqmaslik, tegishli javob berish. Masalan, “Imtihon qachon?” Javob: “Bugun, soat 7da”.(“Bugun havo juda yaxshi” emas). 4. *Uslub* (manner)- Bu nutqning maksimum aniqlik, ravshanlik va tartiblilikni talab qiladi: Gap qurilishi “Haligi narsa qayerda edi?” emas, “Kitob qayerda edi?” tarzida shakllanishi kerak. Yuqoridagi “Haligi narsa…” qurilmasi implikaturani yuzaga keltirmoqda.

2. Raqamli nutq va qisqartmalar. Raqamli nutqda qisqartmalar keng qo‘llaniladi: “OK”, “LOL”, “brb” (be right back). Masalan: A: Bugun uchrashamizmi? B: LOL, vaqt yo‘q 😅. Bu yerda “LOL” kulgini emas, balki yumshoq rad etishni bildiradi. Bu Paul Grice nazariyasidagi implikatura hodisasiga misol bo‘ladi - ya’ni aytilgan gapdan ko‘ra ko‘proq ma’no yashiringan.

3. Emojil va pragmatik ma’no. Emojilar va pragmatik ma’noni ifodalashda juda faol ishtirok etadi. Shuningdek, emoji raqamli kommunikatsiyada yangi semiotik tizim sifatida shakllangan: Misol: “Yaxshi ish qilibsan 👍”. Bu yerda 👍 belgisi tasdiq va ijobiy bahoni kuchaytiradi. Ammo:“Yaxshi ish qilibsan 🙂”. Ba’zan bu emoji 🙂 ironiyani ham anglatishi mumkin. Bu kontekstga bog‘liq pragmatik o‘zgaruvchanlikni ko‘rsatadi. Emoji va belgilar pragmatik “yuk”ni oshiradi

3. Nutq aktlari transformatsiyasi. John Searle nazariyasiga ko‘ra, har bir gap ma’lum nutq aktini bajaradi (buyruq, iltimos, xabar). Raqamli muhitda: “Ertaga kelasan?” Bu savol shaklida bo‘lsa ham, aslida iltimos yoki taklif bo‘lishi mumkin.

(cc) BY

Yoki: “Kelinglar, boshladik 🔥”. Bu motivatsion nutq akti bo‘lib, emoji orqali kuchaytirilgan. Nutq aktlari shakl jihatdan o‘zgarsa-da, funksional jihatdan saqlanadi.

4.Kontekstning qisqarishi va rekonstruksiya. Raqamli kommunikatsiyada kontekst ko‘pincha minimal bo‘ladi: qisqa xabarlar, tezkor javoblar. Masalan: “Bo‘ldi.” Bu so‘z turli ma’nolarni anglatishi mumkin:

rozilik, norozilik va suhbatni tugatish. Bu kabi qurilmalarda ma’no faqat avvalgi yozishmalar orqali aniqlanadi. Raqamli kommunikatsiyada pragmatika an’anaviy nutqdan sezilarli darajada farq qiladi. Qisqartmalar, emojilar va multimodal vositalar muloqotning asosiy elementlariga aylangan.Biz yuqorida implikatura va qisqartmalarning ijobiy jihatlarini ko‘rib chiqdik, quyida ularning salbiy jihatlarini tahlil qilamiz.

5. Implikatura va qisqartmalar pragmatikasining salbiy jihatlari. Ma’no noaniqligini keltirib chiqaradi. Implikatura tabiatan bevosita ifodalanmagan ma’noga asoslanadi. Bu esa muloqotda turli interpretatsiyalar (talqinlar) paydo bo‘lishiga olib keladi. H. P. Grice nazariyasida implikatura kontekstga bog‘liq inferensiya orqali aniqlanadi[1]. Ammo real kommunikatsiyada: bir xil gap → bir nechta ma’noga ishora qiladi: “You are late again” (“Siz yana kechikdingiz”). Ushbu gap kerakli konstruksiyalar qurshovida berilmasa, implikatura yuzaga keladi: *tanqid, hazil, norozilik, befarqlik*. Natijada kommunikativ xato xavfi oshadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, implikatura va qisqartmalar pragmatikasi zamonaviy raqamli kommunikatsiyada muhim hisoblanib, nutqni ixcham va tezkor ifodalash imkonini beradi. Ular orqali kam so‘z bilan ko‘p ma’no uzatilib, kommunikativ samaradorlikka erishiladi. Biroq kontekstdagi kuchli bog‘liqlik sababli ma’no noaniqligi va noto‘g‘ri talqin xavfi ham yuzaga keladi. Shuning uchun bu hodisa bir tomondan qulaylik yaratsa, ikkinchi tomondan pragmatik xatoliklarni ham keltirib chiqaradi.

Quyida *implikatura* va *qisqartmalar* pragmatikasining *ijobiy* va *salbiy* xususiyatlari asosida tuzilgan jadval keltiriladi:

Jadval-1.

Jihat	Turi	Izoh (ilmiy)	O‘zbek tilida misol	Ingliz tilida misol
Ijobiy	Tezkor kommunikatsiya	Qisqartmalar nutqni ixcham va tez qiladi, raqamli muloqotni yengillashtiradi	“Hozir kelyapman” → “Hoz kelyapman”	“I am on my way” → “omw”
Ijobiy	Iqtisodiylik prinsipi	Gricening miqdor maksimumiga mos ravishda kam so‘z	“Mayli 🙂” (rozilik + yumshoq	“OK 👍” (agreement + friendly tone)

(cc) BY

		bilan ko‘p ma’no uzatish	emotsiya implikaturasi)	
Ijobiy	Emotsional ifoda	Emojilar va qisqartmalar pragmatik ohangni kuchaytiradi	“Zo‘r 😍” → ijobiy baho + hayrat	“Great 😊” → positive attitude
Ijobiy	Guruh identifikatsiyasi	Yoshlar/slang orqali ijtimoiy identifikatsiya hosil qiladi	“lol” / “vibe zo‘r”	“lol”, “that’s fire”
Salbiy	Ma’no noaniqligi	Implikatura kontekstga bog‘liq bo‘lib, noto‘g‘ri talqin yuzaga keladi	“Yaxshi…” → rozilik yoki kinoya	“Fine.” → neutral yoki passiv-aggressive
Salbiy	Kommunikativ xato	Qisqartmalar universal emas, tushunmovchilik tug‘diradi	“idk” (ba’zilar tushunmaydi)	“idc” (may sound rude)
Salbiy	Emotsional sovuqlik	Qisqartmalar hissiy ifodani zaiflashtiradi	“K.” (sovuq javob)	“k.” (dismissive tone)
Salbiy	Pragmatik konflikt	Turli talqinlar muloqot ziddiyatini keltirib chiqaradi	“Mayli…” (norozilik bo‘lishi mumkin)	“Sure…” (sarcasm possible)
Salbiy	Til me’yorining buzilishi	Raqamli qisqartmalar adabiy til me’yoriga ta’sir qiladi	“nima gap” (normadan chetlanish)	“u” instead of “you”
Salbiy	Madaniy farq	Turli auditoriya bir xil qisqartmani turlicha tushunadi	“😂” (kulgi yoki kinoya)	“😂” (laughing vs sarcasm depending on context)

Xulosa. Mazkur maqolada implikatura va qisqartmalar pragmatikasi zamonaviy raqamli kommunikatsiya sharoitida lingvistik hodisa sifatida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu pragmatik vositalar nutqni ixchamlashtirish, kommunikativ tezlikni oshirish hamda emotsional va kontekstual ma’nolarni samarali uzatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, implikatura Grice nazariyasiga

(cc) BY

tayangan holda yashirin ma’noning kontekst orqali anglanishini ta’minlasa, qisqartmalar raqamli diskursda iqtisodiylik va operativlikni kuchaytiradi. Biroq ularning kontekstga kuchli bog‘liqligi ma’no noaniqligi, pragmatik xatoliklar hamda madaniy va generatsion tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Kelajakda raqamli pragmatikani sun’iy intellekt va avtomatik matn tahlili bilan bog‘lab o‘rganish tilshunoslikning muhim yo‘nalishi sifatida ko‘rilishi, implikatura va qisqartmalarni zamonaviy kommunikatsiyaning samarali, ammo ehtiyotkorlik bilan qo‘llanishi lozim bo‘lgan vositalari sifatida baholashni taqozo etadi. Umuman olganda, ushbu hodisalar raqamli diskursning dinamik rivojlanishida muhim lingvistik mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Grice, P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), Syntax and semantics. Vol. 3: Speech acts (pp. 41-58). Academic Press.

2. Austin, J. L. (1962). How to do things with words. Oxford University Press.

3. Herring, S. C. (2013). Discourse in Web 2.0: Familiar, reconfigured, and emergent. In D. Tannen & A. M. Tester (Eds.), Georgetown University Round Table on Languages and Linguistics 2011: Discourse 2.0 (pp. 1-25). Georgetown University Press.

4. Baron, N. S. (2008). Always on: Language in an online and mobile world. Oxford University Press.

5. Karasik, V. I. (2002). Yazykovoy krug: Lichnost, kontsepty, diskurs. Gnozis.

6. Goroshko, E. I. (2012). Internet-kommunikatsiya: Lingvisticheskiy aspekt. (Publisher details vary by edition; commonly cited in Russian academic sources).

7. Eshmurodova, G. (2025). Pragmalinguistic Analysis of the Category of Impersonality in the Uzbek Language. The Lingua Spectrum, 11(1), 210-215. Retrieved from https://lingvospektr.uz/index.php/lngsp/article/view/1164

(cc) BY